



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Bakayev Xurshid Maxmudovich,

*Hamkorbank OATB Buxoro filialining "Tuqimachi" bank xizmatlari ofisi boshligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi, E-mail: bakaev.xurshid@mail.ru
ORCID: 0009-0001-7694-8450*

IMPROVING THE AUDIT OF LONG-TERM ASSETS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

Bakayev Xurshid Maxmudovich,

*Head of the "Tukimachi" banking services office of the Bukhara branch of OJSCB "Hamkorbank", Independent researcher of Tashkent State University of Economics, E-mail: bakaev.xurshid@mail.ru
ORCID: 0009-0001-7694-8450*

JEL Classification: M42, O5

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ilg'or tajribalarning asosiy jihatlarini aniqlash va ulardan buxgalteriya va audit faoliyatida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabi bo'yicha tashkil etish mavzusi, kompaniyalar va tashkilotlar uchun moliyaviy shaffoflikni va global raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq hisobini yuritishning asosiy prinsiplari va metodologiyalarini ko'rib chiqadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari to'g'ri va ishonchli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni nazorat qilish va mustahkamlash uchun auditorlik faoliyati keng qo'llaniladi. Xalqaro audit standartlari asosida auditorlik faoliyatini tashkil etish moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish va ishonchliligini ta'minlash uchun zaruriy

vositadir. Xalqaro audit standartlarining joriy etilishi milliy va xalqaro iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi va auditorlik xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ishi xalqaro audit standartlari asosida auditorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda xalqaro audit standartlarining asosiy tamoyillari, ularning milliy amaliyotga joriy etilishi va xalqaro tajribadan o'rganish muhimligi keng yoritiladi. Auditorlik jarayonining sifati va ishonchliligini ta'minlashda xalqaro audit standartlarining o'rnini alohida tahlil qilinadi, hamda ularning auditorlik kompaniyalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqolada xalqaro standartlarga muvofiqlikning afzalliklari, shu jumladan, shaffoflikni oshirish va moliyaviy hisobotlarning solishtirilishini ta'minlash, hamda muammo va qiyinchiliklar, masalan, murakkablik va moliyaviy resurslarning yetishmasligi kabi omillar ham muhokama qilinadi. Natijada, tadqiqot ishi uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etishning



moliyaviy hisobot sifatini yaxshilash va kompaniyaning global bozorlar bilan integratsiyasini ta'minlashdagi muhimligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga moslashish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ham keltirilgan.

Abstract: This article talks about improving the audit of long-term assets based on international standards. The main goal of the study is to identify the main aspects of best practices and develop recommendations for their use in accounting and auditing activities. The topic of organization of long-term asset accounting according to the requirements of international standards is important for ensuring financial transparency and global competitiveness for companies and organizations. This article examines the main principles and methodologies of accounting for long-term assets in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS).

In the conditions of the modern economy, it is important that the financial reports of enterprises and organizations are correct and reliable. Audit activities are widely used to control and strengthen this process. Organization of auditing activities based on international auditing standards is a necessary tool to improve the quality and reliability of financial reports. The introduction of international audit standards contributes to the sustainable development of the national and international economy and allows to improve the quality of audit services.

This research work is devoted to the study of theoretical and practical aspects of the organization of auditing activities based on international auditing standards. The main principles of international auditing standards, their introduction into national practice and the importance of learning from

international experience are widely covered in the study. The role of international auditing standards in ensuring the quality and reliability of the auditing process is analyzed separately, and the mechanisms of their influence on the activities of auditing companies are considered. The article discusses the advantages of compliance with international standards, including increased transparency and comparability of financial statements, as well as challenges and challenges, such as complexity and lack of financial resources. As a result, the research emphasizes the importance of organizing long-term asset accounting in accordance with international standards in improving the quality of financial reporting and ensuring the company's integration with global markets. At the same time, there are recommendations for solving possible difficulties in the process of adaptation to international standards.

Kalit so'zlar: Aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, audit, uzoq muddatli aktivlar auditi, xalqaro standartlar, auditning xalqaro standartlari, Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS), Xalqaro Hisob-kitob Standartlari (IAS), auditorlik xizmatlari, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF), xalqaro audit, moliyaviy hisobot.

Keywords: Assets, long-term assets, audit, long-term assets audit, international standards, international standards of auditing, International Financial Reporting Standards (IFRS), International Accounting Standards (IAS), auditing services, International Federation of Accountants (IFAC), international audit, financial statement.

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy muhitda kompaniyalar va tashkilotlar, o'z faoliyatlarida samaradorlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashishga majbur. Uzoq muddatli aktivlar, xususan, ko'p

hollarda bu standartlarning markaziy o'rnini egallaydi, chunki ular moliyaviy hisobotning sifatini va kompaniyaning moliyaviy holatini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Uzoq muddatli aktivlar – bu iqtisodiy foyda keltiruvchi va bir necha yil davomida foydalanilishi mo'ljallangan mol-mulk, asbob-uskunalar, binolar, yer uchastkalari va boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi. Bularni to'g'ri va aniq hisobga olish kompaniyaning moliyaviy holati va kelajakdagi strategik qarorlar qabul qilishida katta ahamiyatga ega.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, masalan, Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS) va Xalqaro Hisob-kitob Standartlari (IAS), uzoq muddatli aktivlarning hisobini yuritish uchun aniq qoidalar va talablarni belgilab beradi. Ushbu standartlar asosida uzoq muddatli aktivlarning qiymatini baholash, amortizatsiya hisoboti, qiymatni pasaytirish va boshqa muhim masalalar bo'yicha bir xil yondashuvni ta'minlash mumkin.

O'zbekistonda keyingi yillarda auditorlik faoliyatining nufuzini oshirish hamda auditorlik tashkilotlarining xalqaro tarmoqlarda a'zolicini kengaytirish borasida jadal islohotlar olib borilmoqda. Biroq hali-hanuz mamlakatimizda auditorlik faoliyatini rivojlantirish borasida kamchiliklar uchramoqda. Xususan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayotgan muammolarning mavjudligi auditorlik tashkilotlari faoliyatini xalqaro talablar asosida yo'lga qo'yishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Mamlakatimizda auditorlik tashkilotlari va auditorlar ishi sifati nazoratini amalga

oshirishda huquqiy, uslubiy va amaliy muammolarning mavjudligi mazkur mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

Auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib shulardan asosiysi 2020-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasida barcha auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshirishi belgilandi. Ushbu qarordagi ko'rsatmalar xalqaro darajada differentsiyatsiyalashgan investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga kirishi uchun asosiy oimillardan biri hisoblanadi.

Material va metod. Tadqiqotni amalga oshirishimizda tadqiqot natijalarimizdan ko'zlagan samarani olishimiz uchun, albatta, tadqiqot mavzusi doirasida yetarlicha sifat va miqdoriy ma'lumotlar to'plashimiz kerak bo'ldi. Bu sifat va miqdoriy ma'lumotlarni birlamchi va ikkilamchi manbalardan to'pladik. Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma'murchiligini samarali tashkil haqida yurtimiz va chet el olim, tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan adabiyotlarning elektron, xamda bosma nashrlarini to'plash

tadqiqot mavzumizni nazariy jihatlarini yoritib berish uchun kerak bo'ldi.

Ta'rif bo'yicha birlamchi ma'lumotlarni yig'ish – bu manbada to'plangan xom ma'lumotlarni yig'ish hisoblanadi. Bu ma'lum bir tadqiqot maqsadi uchun tadqiqotchi tomonidan to'plangan asl ma'lumotlarni to'plash jarayoni. Keyinchalik uni ikki segmentga tahlil qilish mumkin:

Sifatli tadqiqot usuli. Ma'lumotlarni yig'ishning sifatli tadqiqot usullari raqamlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plashni yoki matematik hisoblash orqali chiqarish zarurligini o'z ichiga olmaydi, aksincha u tadqiqotchining hissi yoki hissiyotlari kabi miqdoriy bo'lmagan elementlarga asoslanadi. Bunday usulning misoli ochiq anketadir.

Miqdoriy Usul. Miqdoriy usullar raqamlarda keltirilgan va xulosa chiqarish uchun matematik hisoblashni talab qiladi. Matematik hisoblash uchun raqamlarga kelish uchun yaqin savollar bilan so'rovnomadan foydalanish misol bo'lishi mumkin. Shuningdek, korrelyatsiya va regressiya usullarini misol qilish mumkin.

Natijalar. O'zbekiston iqtisodiyoti tuzilmalarida moliyaviy nazorat munosabatlarini rivojlantirish, auditorlik tekshirishlarini kengaytirish va ularni bozor iqtisodiyoti qoidalarga muvofiq tashkil etish iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) xalqaro darajada e'tirof etilgan standartlarni ishlab chiqadi va amalga kiritib keladi. Bunday choralar investorlar va boshqa manfaatdor taraflar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun asos boladigan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini oshirish imkonini beradi.

Shu bois, XBF standartlarni o'rnatadigan quyidagi to'rtta mustaqil kengash faoliyatini qollab-quvvatlaydi:

Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi (IAASB), Buxgalterlik ta'limining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IAESB), Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash (IESBA) va Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IPSASB). Hisob va audit standartlarini o'rnatadigan mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarida yuqori sifatli, ochiq va samarali ishlab chiqilishini ta'minlaydigan, aniq belgilangan, tegishli jarayonga rioya qiladilar. Bu standartlarni belgilash boucha mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan keng jamoatchilik vakillari hisoblanadigan Maslahat guruhlariga egadirlar. Mazkur kengashlar quyidagi hujjatlarni chop etadilar:

- Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi;
- Audit, ko'rib chiqish, ishonch bildirish bo'yicha boshqa xizmatlar va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari;
- Sifat nazorati bo'yicha xalqaro standart;
- Ta'limning xalqaro standartlari;
- Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari.

XBF tegishli ko'rsatmalarni ishlab chiqadi va professional buxgalterlar biznesda ishlashi uchun zarur bolgan resurslarni tarqatishga ko'maklashadi. Shuningdek, u kichik va o'rta korxonalar hamda kichik va o'rta biznesda band bolgan buxgalter-amaliyotchilar (SMP)ga va jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynay digan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bolgan masalalarni yechish bilan shug'ullanadigan guruhlarini ham tashkil etadi.

Auditorlik kompaniyalarining roli va tutgan o'rni bozor infratuzilmasi elementlari ichida alohida ahamiyatga ega. Angliya, AQSH, Kanada, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham

ma'lumki, auditorlik kompaniyalari bozor infratuzilmasi elementlarining zanjirli tizimida asosiy halqalardan biri bo'lib hisoblanadi. Auditorlik kompaniyalari korporatsiyalar, firmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi tuzilmalarning ishlab chiqarish, moliya-xo'jalik faoliyatida muomalalarning to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlab, mijozlarning ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bozor infratuzilmasining eng muhim elementlaridan biri sifatida auditorlik tashkilotlari mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

Butun dunyo iqtisodiyotining globalashuvi va transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi sharoitida moliyaviy hisobot auditi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari jiddiy va tanqidiy tahlil etilmoqda. Investorlar korporativ boshqaruvning turli jabhalarini chuqur tahlil qilib, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining yanada ishonchliligini talab etmoqda. Moliyaviy hisobotlar bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatish va xolis auditorlik xulosasini tuzish maqsadida AQShda 404-sonli Sarbeynz-Oksli qonuni qabul qilingan. Bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash, ichki nazoratni takomillashtirish va investorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini to'laqonli joriy etishda mazkur standartlarning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish, ularni amaliyotda qo'llay olish, milliy standartlarni xalqaro

standartlarga muvofiqlashtirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiyalash, ilg'or xorij tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy etish kabi masalalarni hal etish uchun moliyaviy hisobot auditini yanada takomillashtirish borasida kompleks tadqiqotlar olib borish zarurati kuchaymoqda. Rivojlangan davlatlarda moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishda muhimlik va risk darajalarini aniqlash, auditorlik dalillarini to'plash, auditorlik fikrini shakllantirish, xolis auditorlik xulosasini tuzish borasida keng tadqiqotlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda dunyo mamlakatlarida auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini tashkil etuvchi davlat auditi, auditorlik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar, ichki audit institutlari, xalqaro professional assotsiatsiyalar faoliyati takomillashib bormoqda va ushbu sohada faoliyat yuritayotgan auditorlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, "Sertifikatlangan jamoat buxgalterlari assotsiatsiyasi (The Chartered Association of Certified Accountants – ACCA) 178 dan ortiq davlatlarda 700 mingta" [7], "Amerika sertifikatlangan jamoat buxgalterlari instituti (American Institute of Certified Public Accountants-AICPA) 143 dan ortiq davlatlarda 450 mingta" [8], "Xalqaro ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors, IIA) 150 dan ortiq davlatlarning auditorlik faoliyatini tartibga solish jarayonida faol ishtirok etuvchi jamoatchilik tashkilotlari, shu bilan birga, ichki audit sohasida band bo'lgan 180 mingdan ortiq a'zoni birlashtiradi" [9]. Ta'kidlash joizki, auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar qonunchiligi va ilg'or tajribasini amaliyotga joriy etish, auditorlik tashkilotlari va audit xizmatlar bozorini tahlil qilish eng dolzarb va o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardan sanaladi.

Mamlakatimiz auditorlik faoliyatidagi qator muammo va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu boisdan, mamlakatimizda jahonda umumqabul qilingan zamonaviy normalar, standartlar, shu jumladan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish asosida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etmoqda. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da [1] yurtimizda investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va

usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish borasida muhim vazifalar belgilangan edi. Bu vazifalar amalga joriy qilinib, ijobiy narijalarga erishildi.

Keyingi yillarda ham yurtimizda auditni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmonini misol qilib olishimiz mumkin. Bu farmonda bir qancha sohalarda audit faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga oid chora-tadbirlar belgilangan edi (1-jadval):

1-jadval

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan turli sohalarda audit faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar¹

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish bosqichlari
1	Soliq auditining har bir qadamini avtomat tarzda qayd etib boradigan va uni ijrosini nazorat qiluvchi Soliq auditining nazorat tizimini yaratish	1. Soliq auditining nazorat tizimini yaratish konsepsiyasi va texnik topshirig'ini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda kompleks ekspertizadan o'tkazish; 2. Soliq auditining nazorat tizimini yaratish choralarini ko'rish.
2	"Bojxona auditi" avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish	1. Loyihaoldi o'rganishni va ma'lumotlar tahlilini amalga oshirish; 2. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish; 3. Loyihani amaliyotga joriy etish.
3	"BOJXONA AUDITI" avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish	1. Loyihaoldi o'rganishni va ma'lumotlar tahlilini amalga oshirish; 2. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, loyihani vakolatli organlarda ekspertizadan o'tkazish; 3. Axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish; 4. Bojxona organlari xodimlarini axborot tizimidan foydalanishga o'qitish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

		5. Axborot tizimida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda doimiy texnik qo'llab-quvvatlash ishlarini ta'minlab borish.
4	Yirik sanoat korxonalarini va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi energiya sarfi yuqori bo'lgan korxonalarda majburiy energoauditni o'tkazish mexanizmini joriy etish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish; 2. Xalqaro tajribani o'rganish va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash; 3. Energoauditni o'tkazish mexanizmini joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan turli sohalarida audit faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar loyihalari amalga oshirilib, mamlakatimizda keng joriy etilib kelinmoqda. Strategiyada, asosan, hozirgi kunda nazorat qilish tobora murakkablashib borayotgan sohalar keltirilgan edi. Bunda, masalan, soliq auditining har bir qadamini avtomat tarzda qayd etib boradigan va uni ijrosini nazorat qiluvchi Soliq auditining nazorat tizimini yaratish orqali yuridik va jismoniy shaxslarning soliq to'lovchilik qobiliyatlarini hamda soliq xodimlari bilan iste'molchilar o'rtasidagi shaffoflik ta'minlashga erishiladi. Bojxona tizimida ham xalqaro standartlar asosida audit faoliyatini yo'lga qo'yish va uni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

O'tgan yillarda O'zbekistonda qo'llash uchun auditning xalqaro standartlari belgilab chiqildi. Bunga misol tariqasida 2022-yil 11-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli

qarorini olishimiz mumkin. Qarorda keltirilgan normalar amaliyotda qo'llanilgan prinsiplar asosida tuzilgan. Ularning joriy etilishi ko'rsatilgan auditorlik xizmatlari natijalariga ishbilarmonlar va umuman jamoatchilik ishonchini shakllantirish va oshirishga yo'naltirilgan xalqaro standartlar asosida auditorlik xizmatlari bozorining yanada rivojlanishini, respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilanganining asosiy omili sifatida auditorlik kasbi nufuzi va auditorlik xizmatlari sifati oshishini ta'minlab kelmoqda.

Ushbu Nizom Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining (XBF) audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadigan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun ularni tan olish tartibini belgilaydi. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadigan auditning xalqaro standartlariga quyidagilar kiradi (1-rasm):

AUDITNING XALQARO STANDARTLARI

auditning xalqaro standartlari

sifat nazoratining xalqaro standartlari

tahliliy tekshirishlarning xalqaro standartlari

ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari

turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari

1-rasm. Auditning xalqaro standartlari tarkibi²

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, auditning xalqaro standartlarini tashkil qilishda sifat nazoratining xalqaro standartlari, tahliliy tekshirishlarning xalqaro standartlari, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari hisobga olinadi. Shuningdek, 171-sonli qarorga muvofiq, auditning xalqaro standartlari 8 bosqichdagi vazifalar asosida Moliya vazirligi, buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, auditorlar palatasi hamda auditorlik tashkilotlari hamkorligida O'zbekiston hududida auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibiga doir vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston moliya vazirligi tomonidan "2022-yil 1-noyabrga qadar auditning xalqaro standartlari bo'yicha bepul o'qitish ta'lim platformasini yaratish choralari ko'rish" vazifasi yuklatilib, kelgusi yildan e'tiboran, xalqaro standartlar asosida to'liq hajmdagi auditorlik xizmatlarini ko'rsatishi belgilangan [4].

Yuqoridagi kabi O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini ko'rib chiqishga oid mamlakatimizda chiqarilayotgan qaror va farmonlar hamda amalga oshirilayotgan loyihalar buxgaltariyidagi ishlarni nazorat qilishda, aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli aktivlarini hisobga olishda, shuningdek, auditorlik faoliyatida shaffoflik o'rnatishda juda ham foydali hisoblanadi.

Uzoq muddatli aktivlarni xalqaro standartlarga muvofiq hisobga olishning asosiy elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• *Qiymatni baholash:* Uzoq muddatli aktivlarning dastlabki qiymatini aniq

aniqlash va keyingi davrlar davomida qiymat o'zgarishlarini monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Dastlabki qiymat, aktivning sotib olish yoki ishlab chiqarishdagi haqiqiy xarajatlarini o'z ichiga oladi. Keyingi qiymat o'zgarishlari, amortizatsiya va qiymatni pasaytirish jarayonlarida qayd etiladi. IFRS 16 va IFRS 13 kabi standartlar, qiymatni baholash va qayta baholash usullarini belgilaydi, bu esa hisobotlarning aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi;

• *Amortizatsiya:* Uzoq muddatli aktivlarning xizmat muddatiga qarab, ularning qiymatini muntazam ravishda taqsimlash amortizatsiya jarayoni orqali amalga oshiriladi. Amortizatsiya usullari, masalan, to'liq yoki oddiy usulda bo'lishi mumkin, va ular aktivning foydali xizmat muddatiga qarab tanlanadi. Amortizatsiya aktivning qiymatini hisobga olish, xarajatlar va foydalilikni to'g'ri aks ettirishda yordam beradi;

• *Qiymatni pasaytirish:* Qiymatni pasaytirish – bu aktivning bozor qiymati yoki kutilayotgan iqtisodiy foydasi kamayganida amalga oshiriladi. Qiymatni pasaytirish, aktivning yaroqsizligi yoki iqtisodiy foydasining pasayishi holatlarida qayd etiladi. IFRS 36 "Qiymatni pasaytirish" standarti, qiymatni pasaytirish jarayonini belgilaydi va aktivlarning to'g'ri baholanishini ta'minlaydi;

• *Hisobot va nazorat:* Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishi va ularning monitoringi, kompaniyaning shaffofligini va moliyaviy holatini yaxshilaydi. Hisobotlar va auditlar orqali aktivlarning haqqoniy baholanishi va ularning qiymat o'zgarishlari muntazam ravishda nazorat qilinadi.

Munozara. So'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli Qaroridagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

moliyaviy hisobot va auditni xalqaro standartlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, asosan, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish juda ham qulay bo'ladi.

Uzoq muddatli aktivlar – bu korxonalar mulkining maxsus toifasi bo'lib, u milliy va xalqaro buxgalteriya hisobida uzoq muddatli aktivlar tushunchasiga yondashuvlar sezilarli darajada farq qiladi. Mahalliy qonun hujjatlariga muvofiq, uzoq muddatli aktivlar – bu kompaniya tomonidan ishlab chiqarish jarayonida moliya faoliyatida bir yildan ortiq vaqt davomida foydalaniladigan mulk

hisoblanadi. Uzoq muddatli aktivlarga kiritilgan mol-mulkning qiymati butun foydalanish muddati davomida yangi yaratilgan mahsulotga o'tkaziladi. Xalqaro standartlar "teskari" usulidan foydalanadi: birinchidan, aktiv aylanma mablag'larning mezonlariga muvofiqligi uchun sinovdan o'tkaziladi, agar mezonlarga rioya qilinmasa, u uzoq muddatli aktivlarga kiritiladi. Masalan, buni milliy buxgalteriya standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha uzoq muddatli aktivlarning tarkibi jihatidan ko'rishimiz mumkin (2-jadval):

2-jadval


Milliy buxgalteriya standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha uzoq muddatli aktivlarning tarkibi³

Milliy buxgalteriya standartlari	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari
Nomoddiy aktivlar	Asosiy vositalar
O'rnatiladigan asbob-uskunalar	Nomoddiy aktivlar
Kapital quyilmalar	Boshqa moliyaviy aktivlar
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	Kechiktirilgan soliq aktivlari
Kechiktirilgan xarajatlar	Boshqa uzoq muddatli aktivlar
Moliyaviy investitsiyalar	
Kechiktirilgan soliq aktivlari	
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	

Xalqaro va milliy standartlari bo'yicha uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish qoidalari ko'p jihatdan farq qiladi. Mavjud tafovutlarning ba'zilar faqat texnik xususiyatga ega ammo buxgalteriya hisobi va

hisobotdagi ma'lumotlarni oshkor qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan tubdan sezilarli farqlar mavjud. Ularni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (2-rasm):

³ Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2-rasm. Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda milliy buxgalteriya standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o'rtasidagi farqlar⁴

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, uzoq muddatli aktivlarni tan olish ularning asl qiymatini aniqlashdan boshlanadi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga ko'ra, aktiv buxgalteriya hisobiga qabul qilingan paytda uni baholash tannarxi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunday holda, xarajat ob'ektni sotib olish yoki qurish paytida tashkilot tomonidan qilingan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya oid solishtirma tahlildan kelib chiqib, auditorlik faoliyatini olib borishga kelsak, bu auditor ishiga qo'yiladigan umumiy qabul qilingan talablar to'plami hisoblanadi. Professional texnik va axloqiy standartlar auditorlardan mijozlar va jamoatchilik kutgan minimal ijro va sifat darajasini belgilaydi. Bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan va mijozning ishlab chiqarish ko'lami, ixtisoslashuvi, buxgalteriya tizimi va boshqa holatlarga qarab o'zgarib turadigan audit protseduralaridan farqli o'laroq, standartlar ish sifati o'lchovidir.

Xalqaro audit standartlari barcha auditorlar o'zlarining kasbiy faoliyati davomida amal qilishlari kerak bo'lgan

yagona asosiy printsiplardir va agar ularga rioya qilinsa, audit va unga tegishli xizmatlar sifatining tegishli darajasi ta'minlanadi.

Xalqaro audit standartlarining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ✓ professionallik darajasi global darajadan past bo'lgan mamlakatlarda auditni rivojlantirish;
- ✓ xalqaro miqyosda auditga yondashuvlarni birlashtirish.

Auditorlik tekshiruv metodologiyasini birlashtirish zarurati bir qator ob'ektiv sabablar bilan izohlanadi:

- birinchidan, audit standartlari evolyutsiyasiga xalqaro buxgalteriya hisobi standartlarining rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatadi;
- ikkinchidan, audit va konsalting xizmatlari sohasidagi monopoliyaning o'sishi umume'tirof etilgan standartlarning rivojlanishiga yordam beradi;
- uchinchidan, audit standartlari "sifatsiz audit" o'tkazish imkoniyatini rad etadi chunki ular asosida auditor kamida minimal talab qilinadigan auditorlik protseduralarini bajarishi kerak [5].

Audit standartlari, auditorlik xizmatlarini aniqlash mezonini bo'lib,

⁴ Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

moliyaviy ma'lumotlardan foydalanuvchilarga buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining ishonchliligiga ma'lum darajada ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Binobarin, xalqaro audit standartlarining rivojlanishiga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Tashqi rivojlanish omillariga quyidagilar kiradi:

- jahon iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va chuqurlashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobot tamoyillarini birlashtirishga olib keladigan transmilliy kompaniyalarni yaratish;

- qimmatli qog'ozlar bozorining jadal rivojlanishi;

- xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli bo'lgan audit an'anaviy ravishda xalqaro xizmatlar sifatida ishlab chiqilgan [6].

Shunday qilib, auditorlik standartlari audit natijalari uchun ma'lum darajadagi kafolatni ta'minlaydigan audit sifati va ishonchliligi uchun yagona asosiy me'yoriy talablarni shakllantiradi. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat o'zgarganda, standartlar vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlar auditini rivojlantirish hamda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun auditorlik standartlari asosida auditorlarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari va auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun imtihonlarni o'tkazish uchun yagona talablar shakllantirilishi kerak. Standartlar auditning umumiy yondashuvini, auditorlik tekshiruvi ko'lamini, auditorlarning hisobot turlarini, metodologiya masalalarini, audit o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar, ushbu kasbning barcha vakillari amal qilishi kerak bo'lgan asosiy printsiplarni belgilaydi.

Standartlarning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- auditorlik tekshiruvining maqbul sifatini ta'minlash

- auditorlik amaliyotiga yangi ilmiy yutuqlarni joriy etishga ko'maklashish;

- foydalanuvchilarga auditorlik jarayonini tushunishga yordam berish;

- auditorlik kasbining obro'sini oshirish;

- auditorlarning mijozlar bilan muzokara olib borishini osonlashtirish;

- auditorlik jarayonining individual elementlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabi bo'yicha tashkil etish, zamonaviy moliyaviy hisobotlar tizimining ajralmas qismidir va bu sohadagi to'g'ri yondashuvlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va strategik muvaffaqiyatini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va xalqaro hisob-kitob standartlari (IAS) uzoq muddatli aktivlarning hisobini tashkil etishda aniq qoidalar va talablar belgilab beradi. Uzoq muddatli aktivlar, masalan, ko'chmas mulk, uskunalar, yer uchastkalari va boshqa iqtisodiy foyda keltiruvchi vositalar sifatida, kompaniyaning moliyaviy holati va uzoq muddatli strategiyalari uchun muhim hisoblanadi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik, kompaniyalarga moliyaviy hisobotlarni xalqaro miqyosda solishtirish imkoniyatini beradi. Bu global investitsiya muhitida kompaniyaning moliyaviy holatini to'g'ri baholash va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro standartlarga rioya qilish kompaniyaning biznes hamkorlari, investorlar va kredit beruvchilar uchun aniq va ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga muvofiqlik, kompaniyaning moliyaviy strategiyalarini optimallashtirish va uzoq muddatli



investitsion qarorlarni samarali qabul qilish imkoniyatini beradi.

Uzoq muddatli aktivlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishda bir qator qiyinchiliklar mavjud bo'lishi mumkin. Standartlarning murakkabligi, mahalliy qonunlar va reglamentlarga moslashishi, hamda kompaniyaning moliyaviy resurslarining yetishmasligi kabi omillar muhim qiyinchiliklar sifatida namoyon bo'ladi. Standartlarga moslashish uchun zarur bo'lgan texnik va malakali kadrlar resurslari, shu bilan birga, texnologik infratuzilma va tizimlarni yangilash talab qilinishi mumkin. Bu jarayon kompaniyaning resurslarini sarflab, qo'shimcha vaqt va xarajatlarni talab qilishi mumkin.

Uzoq muddatli aktivlarni xalqaro standartlarga muvofiq hisobga olish

kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va global bozorlar bilan integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uzoq muddatli aktivlarning to'g'ri hisobga olinishi, ularning qiymatini aniq baholash va shaffof moliyaviy hisobotlarni taqdim etish orqali kompaniyalar global miqyosda raqobatbardoshligini saqlab qolish, investitsion qarorlarni samarali qabul qilish va uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga moslashish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish, kompaniyalarga yaxshilangan hisob-kitoblar va shaffof hisobotlar orqali uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlashda yordam beradi. Xalqaro standartlarga rioya qilish, shuningdek, global iqtisodiy muhitda kompaniyaning nufuzini oshirishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli Qarori
4. Meliyev I.I. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024-yil, yanvar. № 1-son. 220-226.
5. Бунина А.Ю., Павлюченко Т.Н. Особенности отражения операций с внеоборотными активами в соответствии с положениями международных и российских стандартов // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2020. – № 2 (65). 188-195 с.
6. Логвинова Т.И. Методический инструментарий риск-ориентированного аудита учётной информации об основных средствах в сельском хозяйстве / Т.И. Логвинова, Е.Ю. Дьяченко // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2018. – Т. 11, № 2 (57). – С. 200–207.



7. www.accaglobal.com xalqaro axborot sayti
8. <https://en.wikipedia.org/xalqaro> axborot sayti
9. www.hocktraining.com xalqaro sertifikatlash dasturi bo'yicha axborot sayti